

YOSH QIZLARNI AYOLLAR KURASHIGA SARALASHDA INTELLEKTUAL (IQ) DARAJASINI ANIQLASH MEXANIZMLARI

Yakupbaev Alisher Alimbaevich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Nukus filiali «Yakka kurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati»

kafedrasi professori

Email: yakupbaevalisher@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh qizlarni ayollar kurashiga saralash jarayonida ularning intellektual (IQ) darajasini aniqlash mexanizmlarining ilmiy-uslubiy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda sport seleksiyasining an'anaviy mezonlari bilan bir qatorda sportchilarning intellektual rivojlanish darajasi, mantiqiy fikrlash, tezkor qaror qabul qilish hamda e'tibor barqarorligini baholashga alohida e'tibor qaratilgan. Yosh sportchilarni tanlash jarayonini takomillashtirish maqsadida IQ darajasini aniqlashga qaratilgan kompleks baholash mexanizmi ishlab chiqilgan va uning samaradorligi pedagogik tajriba asosida asoslab berilgan. Intellektual ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda amalga oshirilgan seleksiya jarayoni sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish hamda ularning sport faoliyatida yuqori natijalarga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: ayollar kurashi, sport seleksiyasi, yosh qizlar, intellektual salohiyat, IQ darajasi, kognitiv qobiliyatlar, qaror qabul qilish, taktik fikrlash.

МЕХАНИЗМЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ УРОВНЯ ИНТЕЛЛЕКТА (IQ) ПРИ ОТБОРЕ ЮНЫХ ДЕВУШЕК В ЖЕНСКУЮ БОРЬБУ

Аннотация: В данной статье освещаются научно-методические основы определения уровня интеллекта (IQ) юных девушек в процессе их отбора в женскую борьбу. В исследовании наряду с традиционными критериями спортивной селекции особое внимание уделено оценке уровня интеллектуального развития спортсменок, логического мышления, скорости принятия решений, а также устойчивости внимания. С целью совершенствования процесса отбора юных спортсменок разработан комплексный механизм оценки уровня IQ, эффективность которого обоснована на основе педагогического эксперимента. Установлено, что проведение селекции с учётом интеллектуальных показателей способствует повышению уровня технико-тактической подготовленности спортсменок и расширяет их возможности достижения высоких спортивных результатов.

Ключевые слова: женская борьба, спортивная селекция, юные девушки, интеллектуальный потенциал, уровень IQ, когнитивные способности, принятие решений, тактическое мышление.

MECHANISMS FOR DETERMINING INTELLECTUAL (IQ) LEVEL IN THE SELECTION OF YOUNG GIRLS FOR WOMEN'S WRESTLING

Abstract: *This article highlights the scientific and methodological foundations of mechanisms for determining the intellectual (IQ) level of young girls in the process of selecting them for women's wrestling. Along with traditional criteria of sports selection, particular attention is paid to assessing athletes' level of intellectual development, logical thinking, rapid decision-making, and attention stability. In order to improve the selection process of young athletes, a comprehensive assessment mechanism aimed at identifying IQ levels was developed, and its effectiveness was substantiated through pedagogical experimentation. The selection process carried out with consideration of intellectual indicators enhances athletes' technical and tactical preparedness and expands their opportunities to achieve high results in sports activities.*

Keywords: *women's wrestling, sports selection, young girls, intellectual potential, IQ level, cognitive abilities, decision-making, tactical thinking.*

KIRISH

Jahon sport amaliyotida ayollar kurashi va yakkakurash sport turlariga saralash jarayonida intellektual salohiyatni baholash muhim komponent sifatida qaralmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan sport tizimlariga ega davlatlarda IQ testlari to'g'ridan-to'g'ri klassik shaklda kam qo'llanilsada, ularning tarkibiy elementlari bo'lgan kognitiv ko'rsatkichlar mantiqiy fikrlash, tezkor qaror qabul qilish, harakatni ongli boshqarish va o'rganish tezligi kabi omillar seleksiya jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa, Rossiya va Germaniya tajribasida psixodiagnostik va neyropsixologik metodlar orqali sportchilarning intellektual imkoniyatlari chuqur tahlil qilinib sport natijalarini oldindan prognoz qilish imkonini beradi.

Yaponiya tajribasi esa o'ziga xos yondashuv bilan ajralib turadi, bunda kognitiv qobiliyatlar bevosita testlar orqali emas, balki texnik harakatlarni ongli ravishda takrorlash va chuqur o'zlashtirish jarayonida shakllantiriladi. AQSH sport tizimida esa IQ tushunchasi kengaytirilgan holda "kognitiv samaradorlik" sifatida talqin qilinib, sportchilarning vaziyatga moslashuvi va qaror qabul qilish tezligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda esa ushbu yo'nalish endigina rivojlanib, seleksiya jarayoniga intellektual baholash komponentlarini joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Mazkur tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, ayollar kurashiga qizlarni saralashda IQ testlaridan foydalanish alohida mezon sifatida emas, balki kompleks

seleksiya tizimining muhim elementi sifatida qaralishi lozim. Bu esa boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida individual yondashuvni kuchaytirish, texnik harakatlarni o'rgatish samaradorligini oshirish va istiqbolli sportchilarni aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Zamonaviy sport nazariyasi va amaliyotida seleksiya jarayonini takomillashtirishda faqat jismoniy va morfologik ko'rsatkichlarga tayanish yetarli emasligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ayniqsa, yakkakurash sport turlarida, jumladan ayollar kurashida sportchining texnik-taktik harakatlarni o'zlashtirish tezligi, vaziyatni anglash darajasi va qaror qabul qilish samaradorligi uning intellektual salohiyati bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan. Shu nuqtai nazardan, IQ testlari va kognitiv baholash vositalari seleksiya jarayonining muhim tarkibiy elementi sifatida qaralmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqori intellektual ko'rsatkichlarga ega sportchilar murakkab texnik kombinatsiyalarni tezroq o'zlashtiradi, mashg'ulot jarayonida kamroq xatolarga yo'l qo'yadi va o'z harakatlarini samaraliroq nazorat qila oladi. Bu esa ayniqsa boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda texnik asoslar shakllanadi. Agar ushbu bosqichda sportchining individual intellektual xususiyatlari inobatga olinmasa, keyingi bosqichlarda texnik kamchiliklarni bartaraf etish qiyinlashadi.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, sport seleksiyasida IQ testlaridan foydalanish ko'proq bilvosita xarakterga ega bo'lib, ular kognitiv testlar, psixodiagnostik metodlar va vaziyatli mashqlar orqali amalga oshiriladi. Bu yondashuv sportchining real faoliyat sharoitidagi fikrlash tezligi va moslashuvchanligini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, kognitiv ko'rsatkichlarni baholash natijalari asosida sportchilarni guruhlariga ajratish va ular uchun differensial mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish seleksiya samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

1-jadval

Ayollar kurashiga saralashda IQ darajasini baholashga qaratilgan xorijiy tajribalarning ilmiy tahlili

Davlat	Seleksiya tizimi xususiyati	IQ darajasi	Qo'llaniladigan usullar	Afzalliklari	Kamchiliklari
Yaponiya	An'anaviy va tizimli, uzoq muddatli tayyorgarlikka asoslangan	Bevosita IQ emas, balki ongli harakat boshqaruvi va tez o'zlashtirish qobiliyati baholanadi	Kuzatuv, takroriy mashqlar, texnik kombinatsiyalarni anglash darajasi	Harakatni chuqur o'zlashtirish, texnik mukammallik	IQ aniq o'lchanmaydi, subyektiv baholash ustun
Rossiya	Ilmiy asoslangan, ko'p komponentli seleksiya tizimi	IQ komponentlari (mantiqiy fikrlash, operativ tafakkur) psixodiagnostika orqali baholanadi	Reaksiya tezligi testlari, qaror qabul qilish testlari, psixodiagnostik metodlar	Ob'ektiv baholash, sport natijalarini prognoz qilish imkoniyati	Murakkab diagnostika tizimi, maxsus mutaxassis talab qiladi
AQSH	Ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan sport seleksiyasi	IQ kengroq "kognitiv samaradorlik" sifatida talqin qilinadi	Decision-making testlar, vizual-perseptiv testlar, situatsion tahlil	Tezkor moslashuv, innovatsion yondashuv	Standartlashmagan metodlar, sportga xos moslashtirish talab etiladi
Germaniya	Kompleks (morfologik, funksional,) model	IQ va o'rganish tezligi ilmiy tadqiqotlar asosida baholanadi	Kognitiv testlar, neyropsixologik baholash, monitoring tizimlari	Ilmiylik yuqori, individual yondashuv rivojlangan	Amaliyotda keng joriy etilishi cheklangan
O'zbekiston	Rivojlanayotgan seleksiya tizimi	IQ va kognitiv baholash endigina joriy etilmoqda	So'rovnoma, oddiy testlar, kuzatuv asosida baholash	Ommaviylik, amaliy tajriba mavjud	Ilmiylik yetarli emas, metodik tizim to'liq shakllanmagan

Natijada, ayollar kurashiga qizlarni saralash jarayonida IQ testlaridan foydalanish nafaqat ilmiy asoslangan, balki amaliy jihatdan ham samarali yondashuv hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor test natijalarini to'g'ri talqin qilish,

ularni boshqa ko'rsatkichlar bilan integratsiyalash va individual yondashuv asosida mashg'ulot jarayoniga tatbiq etishga qaratilishi lozim. Mazkur yondashuv boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidayoq sportchilarning salohiyatini to'liq ochib berish va yuqori sport natijalariga erishish uchun mustahkam ilmiy-metodik asos yaratadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Zamonaviy sport tizimida, ayniqsa ayollar kurashida saralash jarayonini ilmiy asosda tashkil etish dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Sport natijadorligini oshirish ko'p omilli jarayon bo'lib, unda sportchining nafaqat jismoniy tayyorgarligi, balki umumiy intellektual salohiyati ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, saralash tizimiga qo'shimcha mezon sifatida IQ testlardan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.


IQ test asosida saralash metodikasi sportchilarni tanlashda kompleks yondashuvni ta'minlaydi va ularning umumiy aqliy rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beradi. Ushbu metodika orqali sportchilarning murakkab vaziyatlarni anglash, tahlil qilish va moslashish darajasi bilvosita baholanadi. Natijada saralash jarayonining aniqligi oshib, istiqbolli sportchilarni dastlabki bosqichlarda aniqlash imkoniyati kengayadi va sport tizimida samaradorlik ortadi. Mazkur metodikaning dolzarbligi sport sohasida raqobatning ortib borayotgani bilan ham izohlanadi. Zamonaviy sportda yuqori natijalarga erishish ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ulardan biri sportchining intellektual rivojlanish darajasidir.

Tadqiqotning boshlang'ich asoslanish bosqichida sport faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Ushbu jarayonda intellektual salohiyat sport natijalariga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim komponent sifatida ajratib olinadi. Ilmiy manbalar tahlili orqali bu omilning ahamiyati asoslab berilib, tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari shakllantiriladi hamda keyingi bosqichlar uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Tadqiqot guruhi shakllantirilish bosqichida ayollar kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilar maqsadli tanlab olinadi. Ular yosh, jismoniy tayyorgarlik darajasi va sog'liq ko'rsatkichlari asosida saralanadi. Bu yondashuv guruh ichida

nisbiy bir xillikni ta'minlab, tajriba natijalarining ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi hamda ilmiy tadqiqot talablari asosida obyektivlikni ta'minlaydi.

Guruhni shakllantirish jarayonida ishtirokchilarni tanlashda tasodifiylikni kamaytirish va nazorat qilinadigan sharoitni yaratish muhim hisoblanadi. Har bir ishtirokchining boshlang'ich ko'rsatkichlari hisobga olinib, ular o'rtasidagi farqlar minimal darajaga keltiriladi. Bu esa keyingi bosqichlarda olingan natijalarni to'g'ri talqin qilish va ilmiy xulosalar chiqarishda yuqori aniqlikni ta'minlaydi.



1-rasm. Ayollar kurashiga IQ test asosida dastlabki saralash algoritmi ketma-ketligi

Test o'tkazish jarayonini standartlashtirish metodikaning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bunda barcha ishtirokchilar uchun bir xil tashkiliy va metodik sharoitlar yaratiladi. Test topshirish vaqti, joyi, davomiyligi va yo'riqnomasi yagona talab asosida tashkil etilib, tashqi omillar ta'siri maksimal darajada cheklanadi, bu esa natijalarning obyektivligini oshiradi.

Standartlashtirilgan test jarayoni olingan natijalarni o'zaro taqqoslash imkonini beradi va sportchilar o'rtasidagi intellektual farqlarni aniqlashni osonlashtiradi. Bu yondashuv saralash jarayonida adolat tamoyillarini ta'minlaydi

hamda subyektiv baholash ehtimolini kamaytiradi. Natijada ilmiy asoslangan, ishonchli va aniqligi yuqori bo'lgan ma'lumotlar shakllantiriladi.

Saralashdagi funksional ahamiyatni aniqlash bosqichida IQ test natijalari sport faoliyati bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinadi. Bu orqali intellektual ko'rsatkichlarning sport natijalariga ta'siri aniqlanadi. Mazkur bosqich metodikaning amaliy qiymatini belgilab, uning sport tizimidagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Natijalar asosida sportchining umumiy tayyorgarlik darajasi haqida kompleks tasavvur hosil qilinadi. Bu esa mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda rejalashtirishga yordam beradi. Natijada sportchilarni rivojlantirish yo'nalishlari aniq belgilanib, ularning imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

XULOSA

Yakuniy saralash qarori barcha olingan natijalar va tahlillar asosida qabul qilinadi. Har bir sportchi individual baholanib, uning keyingi bosqichga o'tish imkoniyati aniqlanadi. Zarur hollarda qo'shimcha tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqiladi va sportchining rivojlanish istiqbollari belgilab beriladi. Qaror qabul qilish jarayoni ilmiy asoslanganligi bilan ajralib turadi va subyektiv omillarni minimallashtiradi. Bu yondashuv saralash tizimining aniqligini oshirib, uning shaffofligini ta'minlaydi. Natijada sportchilarni tanlash jarayoni yanada ishonchli va samarali ko'rinishga ega bo'ladi. Mazkur metodika jismoniy tarbiya va sport tizimiga innovatsion yondashuv olib kiradi. U sportchilarni tanlashda yangi ilmiy mezonlarni joriy etib, saralash tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa sport natijadorligining oshishiga va yuqori malakali sportchilarni tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Khamidjanov A.U. Methodological principles of classification and direction of highly skilled sports wrestlers to types of sports wrestling for the determination of model indicators// Mental enlightenment scientific – methodological journal. Jizzax, 2024. № 8 – P. 362-370. [13.00.00 № 22].
2. Xamidjonov A.U. Sport kurashchilarini funksional tayyorgarligi ko'rsatkichlarining model xususiyatlari asosida saralash mezonlari// NamDU ilmiy axborotnomasi. 2024. – № 10. – B. 640-645. [13.00.00 №30].

3. Xamidjonov A.U. Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishning metodologik asoslari// "Fan-sportga" ilmiy-nazariy jurnal. 2023. – № 5. – B. 32-35. [13.00.00 №16].
4. Xamidjonov A.U. Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlari o'rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi// FarDU ilmiy xabarlar. 2024. – №2. – B. 181-191. [13.00.00 OAK rayosatining 30.11.2022 dagi №327/5-son Qarori].
5. Xamidjonov A.U. Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarining model xususiyatlari o'rganish asosida yosh yunon-rum kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi// NamDU ilmiy axborotnomasi. 2024. – № 3. – B. 701-709. [13.00.00. №30].
6. Xamidjonov A.U. Yuqori malakali sportchilar vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlarini o'rganish asosida yosh dzyudochilarni saralash va yo'naltirish metodikasi// "Fan-sportga" ilmiy-nazariy jurnal. 2024. – №2. – B. 56-58. [13.00.00 №16].
7. Xamidjonov A.U. Yuqori malakali sportchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarining model xususiyatlarini o'rganish asosida yosh kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi// Sportda ilmiy tadqiqotlar, 2024. – № 2. – B. 23-27. [13.00.00 OAK Rayosatining 2022 -yil 15-dekabrda №328-son Qarori].
8. Бриль, М.С. Отбор в спортивных играх/ М.С. Бриль - М.: Физкультура и спорт, 1980. - 127 с. 70
9. Булгакова, Н.Ж. Отбор и подготовка юных пловцов/ Н.Ж Булгакова .- М.: Физкультура и спорт, 1986. - 191 с.
10. Волков, В.М. Спортивный отбор/ Волков, В.М., Филин В.П.- М.: Физкультура и спорт, 1983. - 176 с.
11. Волков, Л.В. Теория и методика детского и юношеского спорта: Учеб. для студ./ Л.В. Волков – Киев: Изд-во «Олимпийская литература», 2002. – 294 с.
12. Губа, В.П. Теория и практика спортивного отбора и ранней ориентации в виды спорта: монография/ Губа, В.П.- М.: Советский спорт, 2008. – 304 с.
13. Губа, В.Современные проблемы ранней спортивной ориентации/ Губа В., Вольф М., Никитушкин В. - М., 1998. - 72 с.
14. Никитушкин, В.Г. Методы отбора в игровые виды спорта/ Никитушкин, В.Г., Губа В.П.. - М., 1998. - 288 с.